



BOSHLANG'ICH SINFDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH TURLARI

ZARMED UNIVERSITETI IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI O'QITUVCHISI

BOLTAYEVA SITORA FAYZULLOYEVNA

Annotatsiya: Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar. Matematika darsida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish rejasiga oid tadbirlar.

Kalit so'zlar: fonetika, grammatika, morfemika, sintaksiz, so'z birikmasi, so'z, ta'lim jarayoni, didaktik o'yinlar, olimpiadalar, kecha, viktorina, ertalik.

Аннотация: внеклассные занятия по родному языку. Мероприятия по плану внеклассных занятий на уроке математики.

Ключевые слова: фонетика, грамматика, морфемика, бессинтаксис, лексика, слово, образовательный процесс, дидактические игры, Олимпиады, вчерашний день, викторина.

Annotation: work carried out outside the classroom from the native language. Activities related to the plan for extracurricular activities in the mathematics lesson.

Keywords: phonetics, grammar, morphemic, without syntax, vocabulary, word, educational process, didactic games, Olympiads, night, quiz, fairy tale.

Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o'z ifodasini topadi.



Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlarga kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o'stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo'shimcha ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlarning ta'limiy ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalar berish.

Tarbiyaviy ahamiyati – o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

- Ona tilidan sinfdan tashqari olib boiladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o'z ifodasini topadi.

- Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni ..
- tadbirlarga ajratish mumkin
- doimiy mavsumiy

Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlarga kiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari

- Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o'stirish, olingan bilim va malakalarni



mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

- Sinfdan tashqari ishlarning ta’limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.

- Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutqodobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

Adabiy kechalar

Adabiy kechalarga misollar “Navoiyxonlik”, “Boburning tavallud kuniga bag‘ishlangan kecha” va h.k

- Ekskursiya

Ekskursiya ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi va ekskursiyadan oldin o‘quvchilarga topshiriqlar beriladi

- Muzeylarga ekskursiyaga borish; Metro bekatlari bo‘ylab sayohat;
- Davlat kutubxonalariga tashrif; Teatr va kino va h.k
- Bayram va tadbirlar

Bunga mavsumiy bayramlarni kiritishimiz mumkin

- Bayram va tabriqlar ssenariy asosida tashkil etiladi
- Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar

Uchrashuv jonli muloqot tarzida tashkil etiladi.

- Uchrashuvga o‘quvchilar yaxshi biladigan shoir va yozuvchilarni taklif etish maqsadga muvofiq

- Mehmon bolalar adabiyoti vakili bo‘lishi lozim.
- Ko‘rik tanlovlari

Bu ko‘rik tanlovlari sinflar ichida yoki sinflararo bo‘lishi mumkin

- Masalan: “Yilning eng bilimdon o‘quvchisi”,
- To‘garaklar

To‘garaklar ma’lum bir fan asosida tashkil etiladi

- To‘garak uchun yillik ish reja tuziladi



- Masalan: “Yosh xattot”, “Ona tilim – jon-u dilim” .
- Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.
- Matematikadan “sinfdan tashqari ish” deganda, o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog‘liq bo‘lgan material asosida ixtiyoriylik prinsipiga asoslangan mashg‘ulotlar tushuniladi.
- Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning mohiyati va mazmuni:
- Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.
- Maktabda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:
- Matematik to‘garak, olimpiada, qiziqarli matematik kecha, matematik ekskursiya. Shuningdek, unga matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish ham kiradi. Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirib kengaytirish; o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, topqirligini, matematik ziyrakligini rivojlantirish; matematikaga qiziqishini orttirish, matematikaga qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlikni, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylik xislatlarini tarbiyalash.
- Sinfdan tashqari ishlar darsga nisbatan ba’zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:
- 1. O‘z mazmuni bo‘yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o‘quvchilarning kuchiga mos bo‘lishi kerak.
- 2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o‘quvchilarni jalb qilishi, ya’ni qiziqtirishi zarur. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham qiziqish orqali faol o‘quvchiga aylanishi mumkin.



- 3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik prinsipiga asosan quriladi. Lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarda baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

- 4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab 10–12 minutdan bir soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

- 5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi. Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlarni yetishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, logik masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebus, o'yin, fokus, boshqotirma va boshqalar kiradi.

- Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik 10 minutliklar, soatlik, matematika kechalari, matematika to'garagi, ertalik, viktorina, konkurs, olimpiada.

- Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

- 1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

- 2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi prinsiplariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

- 3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va sistemaliligining murakkabligidadir.

- **Quyida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish rejasiga oid tadbirlar rejasini keltiramiz**

- Matematika minutliklarida, topshiriqlarga qiziqish uyg'otish va quvvatlash uchun bu topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o'xshash bo'lmasligi kerak.



- Mashgʻulot oʻtkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masala tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadrat, rebus, topishmoq va boshqalar material boʻlib xizmat qiladi.

- **Matematik toʻgarak** matematikadan sistematik sinfdan tashqari ishning eng koʻp tarqalgan turidir. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziqishi boʻlgan oʻquvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematik toʻgarak ishi qiziqarli matematika soatlaridan quyidagi jihati bilan farq qiladi:

- Matematik toʻgarakka oʻquvchi tanlashda uning fanga nisbatan alohida qiziqishi, moyilligi va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Mustaqil ravishda koʻrgazmali vositalar (abaklar, AKT, baʼzi oʻyinlar uchun misollar yozilgan tarqatma va boshqalar) tayyorlanadi, matematik kechalar oʻtkazishga tayyorgarlik koʻriladi va hokazo.

- Toʻgarakni oʻtkazish ish rejasini oldindan tuzish kerak. Namuna uchun ikkinchi yarim yillikda 1-sinfda oʻtkazilgan baʼzi toʻgarak mashgʻulotlarining taxminiy rejalarini keltiramiz.

- **1-mashgʻulot.** 1. Rebuslarni oʻylab topish. 2. Qoʻshishga oid qiziqarli masalalar. 3. 100 ichida nomerlashni bilganlikni tekshirishga oid mashqlar. 4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar. 5. Hazil masala. 6. Topishmoqlar.

- 7. Quvnoq sanoq (20 ichida) oʻyini.

- **2-mashgʻulot.** 1. Rebuslarni oʻylab topish. 2. Topqirlikni talab qiluvchi sheʼriy masalalar. 3. Geometrik figuralarni analiz qilishga doir mashqlar. 4. Hazil masala. 5. “Sonni toʻldir, oʻzing angrayma” oʻyini.

- **3-mashgʻulot.** Dars tipidagi toʻgarak mashgʻuloti.

- **Matematik ertaliklar.** Matematik ertaliklar (kechalar) ommaviy tadbirlardan biri boʻlib, oʻquvchilar va ota-onalar oʻrtasida matematik bilimlarni tarqatish hamda oʻquvchilarning matematikaga qiziqishini oshirish, shu bilan birga ularni matematik toʻgaraklarga koʻproq jalb qilish maqsadida oʻtkaziladi.

- Bunday ertaliklar I – IV sinflarda 1-2 marta oʻtkazish mumkin.



- Ertalikni bir sinf bilan yoki parallel sinflarni qo'shib o'tkazish mumkin. Ertalik o'rta hisobda bir soat davom etishi mumkin. Ertalikni o'tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Buning uchun eng kamida bir oy oldin o'qituvchi chuqur o'ylangan reja tuzib chiqishi kerak. Shundan keyin o'quvchilar bilan suhbatlashib, ularga qilinadigan ishlar taqsimlab chiqiladi. Bu ishga yuqori sinf o'quvchilarini va ota-onalarini ham jalb qilish mumkin.

- Ertalik dasturini kerakli materiallar (she'r, qo'shiq, boshqotirma, qiziqarli masala, matematik o'yin, konkurs masalalari, viktorina savollari, ishtirokchi personajlar kostyumi va boshqa) tayyor bo'lgandan so'ng yana bir marotaba ko'rib chiqish va muhokamadan o'tkazish kerak.

- Ertalik kechani o'tkazishdan bir hafta oldin uning chiroyli bezatilgan va katta qilib yozilgan dasturini ko'rinarli joyga osib qo'yish kerak. Dasturdagi ba'zi savollarga boshqa o'quvchilar ham tayyorgarlik ko'rishi mumkin.

- Ertalik o'tayotgan xonaga (zal) shu ertalikka atab chiqarilgan matematik ro'znoma yoki jurnal osib qo'yiladi. Iloji boricha shu xona ertalikka moslab bezatiladi.

- Ertalikda kechada ishtirok etgan bolalar fantaziya qilish, mulohaza yuritish, to'g'ri fikrlash va gapirishga o'rganadi. Demak, matematik ertalik uchun sarflangan vaqt faqat matematik qimmatga ega bo'lmay, balki o'quvchilar uchun umummadaniy qimmatga va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

- **Matematik musobaqa.** Yuqorida aytib o'tilgan sinfdan tashqari ishlarda (10 minutlik, viktorina, ertalik va h.k.), asosan, butun sinf o'quvchilari ishtirok etsa, matematik musobaqalarda (konkurs, olimpiada) ko'pchilik ishtirok etib, g'oliblar musobaqasi bilan yakunlaydi, ya'ni bu musobaqa bir necha (ko'pincha 3 yoki 4) soat davom etadi. I turda istagan barcha o'quvchi qatnashishi mumkin. Unda muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilar II turda qatnashadi. II turdan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilar III turda qatnashish huquqiga ega bo'ladi va h.k. I turni sinfdagi barcha o'quvchi ishtirokidagi og'zaki qiziqarli savollar orqali viktorina shaklida



o'tkazish mumkin. Shunda g'olib chiqqan o'quvchilar bilan II tur musobaqalar o'tkaziladi. Shundan keyin parallel sinflar o'quvchilari III turda kuch sinashadi. Natijada sinf yoki maktab bo'yicha eng kuchli o'quvchilar aniqlanadi. Ular munosib taqdirlanadi.

• **Matematik olimpiada**

• Olimpiada konkursa qaraganda keng masshtabda o'tkaziladigan va matematika o'rganishda o'quvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan tanlovdir. Olimpiadani qatnashchilarining tarkibiga bog'liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda o'tkazish mumkin. Olimpiadani 2-sinfdan boshlab o'tkazib, g'oliblar maktabning devoriy gazetalarida va o'quvchilar yig'ilishlarida rag'batlantiriladi.

• Matematik olimpiada har xil qiyinlikdagi masalani yechish, qiziqarli masala va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqadir. Masala yechishda o'z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi bor o'quvchilar ishtirok etadi.

• Olimpiada o'tkazishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Quyida 2-sinflarda o'tkazishga mo'ljallangan olimpiadalar uchun misollar keltiramiz. 2-sinf (3-chorak).

• №1. Ikki o'ram jun ipdan 3 ta qalpoq to'qish mumkin. Shunday 9 ta qalpoq to'qish uchun necha o'ram ip kerak?

• №2. Vali va Salimning 30 ta konfeti bor edi. Ular baravardan yegandan keyin Valida 9 ta, Salimda 5 ta konfet qoldi, ular qanchadan konfet yegan?

• №3. Shaklning nechta uchi bor?

• №4. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlar berilgan. Bu qatordagi sonlardan uchta qo'shganda 15 soni chiqadigan nechta misol keltirish mumkin.

• Matematik gazetada har xildagi matematik mazmunni o'z ichga olgan topishmoq, rebus, miyani chalg'ituvchi materiallar chiqarib boriladi. Gazetada chiroyli bezalgan misol va topshiriqlar rasmlarda berilib qiziqtirish xarakterida bo'ladi.



• Viktorinada esa o'quvchilarga yechishni tavsiya qilinadigan topshiriq beriladi. Uning javoblari belgilangan vaqtda o'quvchiga yetkaziladi. **Matematik konkurslar va viktorinalar:**

• Konkurs mavzusi va uni o'tkazish vaqti oldindan belgilanadi.

• Murakkab hisoblashlarni eng qulay usul bilan taqqoslash yordamida hisoblash:

- 1. Mantiqiy masala va mashqlar.
- 2. To'p qirlik, ziyraklikka oid mashqlar.
- 3. Hisoblashlari murakkab bo'lgan masalalar.
- 4. Sharq mutafakkirlari merosiga oid ma'lumotlarni bayon qilishlar, algebraik, geometrik shakllar mazmunini yoritishga oid misollar.

• Amaliy mashg'ulotlar: "Chanoqvoy", "Kim olg'ir?", "A'lochi", "Topag'on", "Bilasizmi?" va hokazo.

• **Matematik viktorinalar** – Matematik viktorinalar ma'lum mavzu, bo'lim yoki umuman matematikaga doir masalalar bo'yicha savol-javob o'yini bo'lib, ko'p vaqt va katta tayyorgarlik talab qilmaydi.

• Boshlang'ich sinflarda viktorinalar 10 – 20 minut davom etadi. Bunda oldindan tayyorlangan 5 – 6 savolga og'zaki yoki yozma javob olinadi.

• I – IV sinflarda matematik viktorinalarni tizimli o'tkazib turish o'quvchilarni masalalarni turli usullarda yechishga o'rgatadi, ularning fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatini kamol toptiradi.

• Umuman, viktorinalar qizg'in musobaqa tarzida o'tadi, eng bilag'on topqir va hozirjavob o'quvchini, ilg'or sinfni aniqlash imkonini beradi.

• Viktorinada qatnashish mutlaqo ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish, matematikaga qiziquvchilarni aniqlash va keyinchalik ularni matematikaga jalb etish maqsadida o'tkaziladi.

• Albatta, viktorinada tavsiya etilgan savollar turlicha qiyinlikda bo'lib, unga ko'proq o'quvchilarning qatnashuviga erishish kerak.



• Matematik viktorinalar har xil oʻtkazilishi mumkin. Quyidagi ikki xilini misol tariqasida keltiramiz:

• 1. Savollar (misol, masalalar) oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilarga ogʻzaki beriladi yoki doskaga oldindan yozib qoʻyiladi. Javobni ham oʻquvchilar ogʻzaki tayyorlaydi. Yoki oʻz daftarlariga qisqa, yaʼni oʻzlari eslab turishi uchun kerakli narsalarni yozib turadi. Oʻqituvchi oʻquvchilardan bir nechitasi qoʻl koʻtarguncha kutib turib, keyin birinchi boʻlib qoʻl koʻtargan oʻquvchidan soʻraydi. Agar birinchi qoʻl koʻtargan oʻquvchi notoʻgʻri javob bersa, ikkinchi va uchinchi qoʻl koʻtargan oʻquvchilardan (toʻgʻri javob olguncha) soʻraladi.

• 2. Oʻqituvchi savolni doskaga yoki qogʻozga oldindan yozib qoʻyadigan boʻlsa, u oʻquvchilarga ishlash uchun buyruq beradi va javoblarni daftarga yozib toʻgʻriligiga ishonch qilgandan keyin qoʻl koʻtarish kerakligini aytadi. Oʻqituvchi qoʻl koʻtargan oʻquvchilar oldiga borib berilgan savol, masala yoki misol javobini koʻradi. Soʻngra avval qoʻl koʻtargan oʻquvchiga javobni aytishga va javobini tushuntirib berishga ruxsat beradi.

• Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda, matematik burchak deb ataluvchi joyga eʼlon qilib qoʻyiladi. Bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi sonli maʼlumotlar, “Bilasizmi?” mavzusida qiziqarli materiallar beriladi. Masalan:

- 1. Odamning boʻyi bir kunda 1 cm dan 6 cmgacha oʻzgarishi mumkin.
- 2. Dunyodagi eng uzun temir yoʻl 9302 km.
- 3. Dunyodagi okeanlar suvida 13300 mln. tonnagacha kumush bor.
- Matematik burchakni tashkil qilishni oʻquvchilar va ularning ota-onalari yordamida amalga oshirish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari

• Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini oʻstirish, olingan bilim va malakalarni



mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

- Sinfdan tashqari ishlarning ta’limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, Malaka va ko‘nikmalar berish.

- Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2009.

2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. “Til va adabiyot ta’limi” 1992 yil. 1-son.

3. Jalilova M. Ne‘matova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini “Topqirlar bellashuvi” tarzida o‘tkazish. “Til va adabiyot ta’limi” 1994 yil 2-3 qo‘shma sonlari.

4. J.O.Tolibova. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. - T.: 2005.